



Received: August 15, 2023
Accepted: September 23, 2023
Available online: September 25, 2023

Adash Rustamova

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil izlanuvchisi (DSc)
Samarqand, O'zbekiston

Adash Rustamova

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)
Independent Researcher (DSc), Samarkand State
Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan
E-mail: rustamovaadashpdinshaallah@gmail.com

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILLARINI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA ASOSIDA O'QITISH

ANNOTATSIYA

Jahonda rivojlanib borayotgan ta'lim tizi-mida chet tillarning o'qitilishini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qator muhim cho-ra-tadbirlar ko'rib, keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi aynan chet tillarni o'qitishni takomillashtirishda pe-dagogik diagnostikaning ahamiyati va uni tog'ri tashkil etishga yordam beruvchi maxsus model va submodellarning ishlashini ko'rsatib berishdan iboratdir. Shu bilan birga, OTMlarida chet tillarni pedagogik diagnostika metodikasi orqali o'qitishning ahamiyatini aniqlashtirish, unga oid ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish, talabalarda chet tili ko'nikmalarini egallash jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni pedagogik diagnostika asosida aniqlash va ularni mashqlar tizimi yordamida bartaraf etish, OTMlarida chet tillarni o'qitishda pedagogik diagnostik jarayonlar model va submodellarini ishlab chiqish va joriy qilishning amaliy samaradorligini baholash, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda uning natijalarini matematik-statistik tahlil qilish mazkur tadqiqot ishimizning asosiy vazifalari sifatida belgilab olingan.

Maqolada chet tili ta'lim samaradorligida pedagogik diagnostikaning prognoz qilish bosqichi ta'limning keyingi muvaffaqiyatini bashorat qilish va uning majsuldorligini rejalashtirish orqali ta'limning sifatli tashkil etilishi hamda talabalarning til ta'limi yutuqlari rivojini rag'batlantirishlari ilmiy asoslangan. Natijada talabalarning chet tili ko'nikmalarini egallashda mavjud kamchiliklar oldindan aniqlanib bartaraf qilinishiga muvaffaq bo'linadi.

TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS

ABSTRACT

In modern education, significant efforts are being made to improve the teaching of foreign languages. This article emphasizes the importance of pedagogical diagnostics in enhancing foreign language teaching, by utilizing specialized models and sub-models for proper organization. The article clarifies the significance of teaching foreign languages in higher education institutions through pedagogical diagnostic methods, summarizes existing scientific approaches for improving foreign language teaching using pedagogical diagnostic methodology, identifies difficulties that arise in the process of acquiring foreign language skills among students through pedagogical diagnostics, and suggests appropriate exercises to overcome them. The article evaluates the practical effectiveness of the development and implementation of models and sub-models of pedagogical diagnostic processes in teaching foreign languages in higher educational institutions. The main tasks involved include the organization of pedagogical experiments and the statistical analysis of their results.

The predictive stage of pedagogical diagnostics is based on scientific evidence and aims to enhance the quality of foreign language education. This stage involves predicting the students' future success in learning a foreign language and planning the educational process to maximize productivity. By doing so, it becomes possible to identify and eliminate any deficiencies in students' foreign language skills. The "Diagnostic education model" consists of

Pedagogik diagnostik ta'limning tashkiliy-tayyorgarlik, jarayon, diagnostik va reflektiv bosqichlaridan kelib chiqib, "Diagnostik ta'lim modeli" hamda ushbu jarayonning faol tashkilotchisi – o'qituvchilarning faoliyatini tasvirllovchi "Pedagogning diagnostik-kasbiy bilimlari submodeli" va diagnostik jarayonning baholash jarayonlarini o'z ichiga olgan "Diagnostik baholash submodeli" ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda oldimizga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonida tajriba-sinov ishlari amalga bajarilib, Respublikamizning 5ta viloyatidan 5ta tajriba-sinov maydonlari tanlab olindi va respondentlar jalb qilindi. Tajriba boshi va oxiridagi natijalar umumlashtirilib, matematik-statistik tahlil asosida umumiy o'sish ko'rsatkichlari aniqlandi. Xulosada ta'lim tizimidagi har qanday chet tili o'rganuvchilarining bilim darajalari va ko'nikmalarining oldindan prognoz hamda diagnostik test qilinishi ularda aynan rivojlantirilishi zarur bo'lgan ko'nikmalarni aniqlashda har tomonlama qo'l kelishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: pedagogik diagnostika, model, submodel, prognoz, korreksiya, kasbiy bilimlar, motivatsiya, diagnostik baholash.

four steps: organizational-preparatory, process, diagnostic, and reflective. This model describes the active role of the organizer in the diagnostic process and the "Sub-model of diagnostic and professional knowledge of the teacher" as well as the assessment processes of the diagnostic process. A "Diagnostic assessment submodel" was also developed to further improve the diagnostic process.

During the research, we carried out pilot-testing works to implement our goals and tasks. We selected pilot-testing sites from five regions across the republic and involved respondents. We summarized the results at the beginning and end of the experiment and determined general growth indicators based on mathematical and statistical analysis. In conclusion, diagnostic testing helps to determine the skills that need to be developed for any foreign language learners in the educational system, thereby forecasting their knowledge levels and skills.

Key words: pedagogical diagnosis, model, submodel, prognosis, correction, professional knowledge, motivation, diagnostic assessment.

KIRISH


Bugungi kunda ingliz tili xalqaro til sifatida butun dunyoda tan olinmoqda va uning chet til sifatida o'qitilishi nafaqat Yevropada, balki Osiyoning ko'plab mamlakatlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi raqobatbardosh kadrlar kurashi zamonida mehnat bozorida chet tillarini yaxshi biladigan mutaxassislariga talab va ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Bunday talab va ehtiyojni qondirish uchun, avvalombor, chet tillarini o'qitishdagi mavjud xato va kamchiliklarning oldini olish, zamon talablariga mos va xos ta'lim sharoitini ta'minlash bugungi kunda barcha davlatlar oldidagi yechimini kutayotgan muammolardandir [Yo'ldoshev, 2000]. Ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni yechish maqsadida dunyoning deyarli barcha davlatlarida yetakchi ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.

Mamlakatimizning ijtimoiy siyosatida shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi orqali insonning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri – ta'lim ehtiyojlarining qondirilishi har jihatdan yoshlarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini, o'ziga xos individual xususiyatlarini o'rganishni, yo'naltirishni va rivojlantirishni talab etadi. Xususan, ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir [Mirziyoyev, 2022]. Buning uchun OTMlari pedagogika yo'nalishidagi pedagogika, didaktika, amaliy psixologiya, ingliz tili o'qitish metodikasi kabi fanlarga alohida e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quv materiallarini

va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ta'lim berishning zamonaviy texnologiyalarini o'zlashtirish, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli pedagogik amaliyotda talaba-yoshlarning rivojlanish darajasini hamda ularning intellektual qobiliyatlari va boshqa sifatlarini tezkor diagnostika qilishga talab ortib bormoqda [Begimkulov, 2007]. Pedagogik diagnostika – bu o'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga bevosita xizmat qiluvchi, har bir rejali o'quv jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanib, u talaba materialni qanday o'zlashtirayotganini doimo kuzatib borishga, tarbiyaviy jarayondagi muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika yordamida o'quv-tarbiyaviy jarayonda tug'iladigan qiyinchiliklar o'rganiladi, ularni bartaraf etish yo'llari tashkil etiladi. Xususan, pedagogik amaliyotda o'quv maskanlari pedagog-psixologlari va o'qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o'rganadilar, lekin bu natijalarga qarab, rivojlanishning barcha komponentlariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo'la olganlaricha yo'q [Begimkulov, 2007]. Rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida natijalarni aniqlash zaruriyati pedagogik diagnostikani vujudga keltirdi. Masalan, Sharqda pedagogik diagnostika elementlari quyidagi tarbiya metodlari zamidida qo'llanilgan (1-rasmga qarang):

1-rasm.

Sharqda pedagogik diagnostikaning tarbiya metodlari



Sharqda pedagogik diagnostika elementlari an'analar, udumlar, rasm-rusumlar zamidida ham namoyon bo'lgan. Bunda yosh avlodni aqliy rivojlantirish bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish, axloqli qilib tarbiyalash: odob, axloq, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshqa fazilatlarini shakllantirish; mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik; aqliy ish, jismoniy mehnat; jismoniy tarbiya: chiniqish, jismoniy o'yinlar; nafosat tarbiyasi: go'zallik, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, saranjom-sarishtalik; ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, flora va faunaga sog'lom yondashuv; iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik, tadbirkorlik; huquqiy tarbiya: insonparvarlik, burch, vijdon, tenglik, adolat, to'g'rilik, halollik kabi tushunchalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratilgan. Demak, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarda pedagogik nazariya va amaliyot

muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishga alohida ahamiyat qaratilgan bo'lib, ularni o'rganish va ulardan foydalanish buyuk ma'naviyatimizni asrashga va rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muassasalarida bu ish uslubiy muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Shu asosda yutuqlar mustahkamlanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida bosh strategik yo'nalishlar belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qo'lga kiritilmoqda. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. So'zlashuv tilida keng iste'mol qilinadigan atama "nazorat-diagnostika" so'zining ma'nosi "ishning/narsaning ahvoli, borishi, kishining yurish-turishini kuzatish, tekshirish, taftish" demakdir. Bunday tekshiruvdan ijobiy o'zgarish kuzatiladi. Demak, oqibat ayblash yoki xato topish emas, balki tekshiruv zahirida kamchiliklarni bartaraf qilish, xatoni tuzatish, ishni yo'lga qo'yish singari ezgu niyatlar yotadi. Chet til o'rgatish jarayonida nazorat olib borish uchun uni o'tkazish metodikasini egallash zarur [Jalolov, 2012]. Nimani, nima uchun va qanday qilib tekshiriladi va nazorat natijasi qanday o'lchanadi, degan muammolarni metodik tahlil qilamiz. Ma'lumki, chet til amaliy maqsadda o'qitiladi va nutq faoliyatini egallash uchun uning texnikaviy va lisoniy tomonlari ham o'zlashtiriladi. Qisqasi, chet tilda nutq ko'nikma va malakalari hosil qilinadi [Jalolov, 2012].

Metodik adabiyotlarda bilim, ko'nikma va malakani tekshirish haqida ham yozilgan. Chet tilda bilim maxsus tekshirilmaydi, chunki u ko'nikma tarkibida o'rganiladi, binobarin, ko'nikma tekshiriladi [Jalolov, 2012]. Shu yerda haqli savollar tug'iladi. Xo'sh, tekshiriladigan narsa/hodisa aniq ekan, nazoratdan kutiladigan muddao nima, uning vazifasiga nimalar kiradi, tekshiruv natijasi o'qitish ishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?... Avvalo, nima uchun nazorat zarur, degan savolga javob berish, ya'ni tekshiruv vazifalarini yoritishga urinib ko'ramiz [Abdullayeva & Ro'ziyeva, 2018] (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Pedagogik diagnostikaning vazifalari

1.	Ta'limiy vazifasi	Oldin o'rganilgan til materiali (ko'nikmalar) va shakllangan malakalarni takrorlash va mustahkamlash hamda takomillashtirish chog'ida tekshirish mashqlari va topshiriqlari bajariladi. Ularning barchasi ta'limiy ruhdagi o'quv tadbirlari tizimini tashkil qiladi. Nazorat chog'ida ham ta'lim berib boriladi.
2.	Diagnostik vazifasi	Til o'rganishning natijasi yaxshi/yomonligi o'z vaqtida bilib turiladi va sharoitga qarab navbatdagi ishlar rejalashtirib boriladi. Darsdagi vazifa va mashqlar tartibotiga tuzatishlar kiritiladi. Kamchiliklar sababi ham aniqlanadi. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatini shart-sharoitga moslab bajarishiga diagnostik nazorat yordam beradi.
3.	Tuzatish vazifasi	Diagnostik nazorat bilan tuzatish birga va muttasil o'tkazib turiladi. Bu tekshiruvda aniqlanadigan o'zlashtirish darajasiga asosan nuqsonlarni to'g'rilash ijobiy samara bergan/bermaganligini o'qituvchi sezib oladi. O'qitish usullaridan tashqari tekshirish topshiriqlari ham o'zgartirib boriladi.

4.	Boshqaruv vazifasi	Behuda vaqt va kuch sarflamaslik uchun ta'lim jarayonini boshqarishni ta'minlashga qaratilgan tadbir bo'lib, eng samarali o'qitish usullarini topishga va til materiali hamda nutq malakalarini egallashda bu usullarni qo'llashga urinib ko'riladi.
5.	Baholash vazifasi	Talabani faoliyati baholab turishni talab qiladi. Talabani ulgurishi o'qituvchi ishining ham mezonidir. Baho qo'yilishi talabani kelajak ishlariga muhim turtki bo'ladi. Ko'nikma va malaka ko'rsatkichlari baholar (ball) bilan o'lchanadi.

Tajriba-sinov ishlari ilmiy-pedagogik tadqiqotning ajralmas qismi bo'lib, izlanishlar natijalarining haqqoniyligi, amaliy ahamiyati hamda tatbiqiylikni tasdiqlashning asosiy me'zonidir. Tajriba-sinov ishining maqsadi – olingan natijalarga, ta'lim innovatsiyalari hamda sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarga muvofiq o'quv va o'quv jarayonining ayrim muammolarini hal qilishdan iboratdir. Tajriba-sinov ishimiz mazkur tadqiqotimizning kirish qismida ilgari surilgan g'oyani real sharoitda sinovdan o'tkazib, olib borayotgan ishimizda samarali ta'sir etuvchi omillar asosida yangi va ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellash), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika (ma'lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

Pedagogik tajriba-sinov ishimizning maqsadi OTMlarida pedagogik diagnostika metodikasi orqali chet til darslarini tashkil etishning samaradorligini aniqlashdan iborat. Tajriba-sinov ishlariga qo'yilgan ilmiy-metodik talablarga ko'ra, pedagogik tajriba-sinov ishlari uchun maydon sifatida respublikamiz bo'ylab jami 5 ta viloyat – Samarqand, Jizzax, Navoiy, Toshkent, Namangan viloyatlari tarkibiga kiruvchi 5 ta OTMlari tanlab olindi. Belgilangan barcha OTMlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tanlanma maydonlar ishtirokchilari bo'lmish respondentlardan tajriba oldi va tajriba yakunida chet tilda o'qish va og'zaki nutq ko'nikmalarida bilim darajasini va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida testlar olindi. Bundan tashqari, o'qituvchi va talablardan pedagogik diagnostika haqida qanchalik darajada ma'lumotga ega ekanliklari, undan dars mashg'ulotlari davomida qay darajada samarali foydalanishlarini tekshirish maqsadida so'rovnomalar o'tkazildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Nazariyaning bir qismi sifatida chet tillarini o'qitishda pedagogik diagnostikadan foydalanish bizning konseptual modelimiz bilan tavsiflanadi. Konseptual model oldida turgan konstruktiv vazifa – o'qituvchining diagnostika faoliyatini chet tilini o'qitish predmeti va vositalari bilan ta'minlash – bu faoliyatning dars jarayonini to'g'ri tashkil etish va ta'lim sifati va samaradorligiga erishishga yordam beradigan tarkibiy qismlarini aniqlashni talab qiladi. Aynan mana shu jarayonlar ketma-ketligini quyida keltirilgan konseptual model bilan ta'riflashimiz mumkin (2-rasmga qarang).

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan nazariy diagnostik ta'lim modeliga oid ta'rif quyidagicha, ya'ni model to'rtta mazmun tarkibini o'z ichiga oladi:

1. Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichida tajriba obyektlarini va undagi mas'ullarni aniqlab olish, tanlanma maydonlaridan tanlab olingan respondentlar uchun oldindan dasturlar, materiallarni tanlash, tajriba-sinovning maqsad va vazifalarini belgilab olish, shu asosda o'qituvchi faoliyatini tashkil etish bosqichlari, talabalarining bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashning mezonlarini ishlab chiqish kabi faoliyatlar amalga oshirildi.


2. Jarayon mazmuni quyidagi bosqichlardan iborat: o'qituvchining diagnostik faoliyati, jarayonni tashkil etish tamoyillarini aniqlab olish, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning ijro etilishini nazoratga olish, qo'llaniladigan va takomillashtirilishi ko'zda tutilgan metodlarni aniqlashtirib olish. Frontal, individual, jamoaviy test shakllarini taqdim qilish, jarayonni muvaffaqiyatli o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi/qo'llab-quvvatlovchi omillarni aniqlashtirib olish zarur. Bularning barchasi ta'lim maqsadiga erishishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

3. Diagnostik mazmun modelning asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lib, ushbu faoliyat mazmunida o'quv faoliyati jarayonida talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanish darajasi, ularni baholashning mezon hamda ko'rsatkichlari muhimdir. Ushbu mazmun ta'limning asosiy maqsadini bajarishda alohida o'rin egallaydi.

4. Reflektiv mazmun diagnostika jarayonlari amalda qo'llanilgach, undan keyin kelib chiqadigan sabab va oqibatlarni tasvirlovchi qism bo'lib, uning tarkibiy qismlari o'quv faoliyatini nazorat qilish (o'qituvchi va talaba ta'lim faoliyati), mezonlar asosida baholash, gradatsiya va degradatsiyani tahlil qilish, prognoz va diagnostik ishlar tamoyili to'g'ri tashkil etilayotganligini tahlil qilib turish, qo'llanilayotgan metodika qanchalik ta'lim maqsadiga erishishda xizmat qilayotganligini aniqlash, prognoz qilinib diagnostika qilingan ta'lim mazmunida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, talabalar o'quv faoliyatidagi aniqlangan kamchiliklar bo'yicha korreksiyalash ishlarini tashkil qilishni qamrab oladi.

Maqsad o'qituvchi tomonidan belgilanadi, diagnostika vositalari esa u tomonidan tanlanadi. Diagnostika mezonlari va belgilarini aniqlash bosqichining roli juda katta: agar xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, unda hech qanday mantiqiy mulohazalar to'g'ri diagnostikani ta'minlay olmaydi. Mezon va belgilarni to'g'ri aniqlashda pedagogik diagnostika vositalarini ishlab chiquvchining o'rni yaqqol ko'zga tashlanadi [Abdullayeva, 2010]. Chet tilini o'qitishda pedagogik diagnostika tamoyillari juda muhim hisoblanadi. Undagi tizimni shakllantirish tamoyili yozishmalar tamoyili bo'lib, birinchidan, diagnostika natijasi oliy ta'lim talabalarining o'qish muvaffaqiyati nuqtayi nazaridan natijalarning haqiqiy holatiga to'liq mos kelishi kerak; ikkinchidan, diagnostika maqsadlar va ta'lim natijalari muvofiqligini ko'rsatishi kerak; uchinchidan, talabaning joriy natijalari aniqlanib uning o'rganish muvaffaqiyati bashorat qilingandan so'ng, talabaning ta'limdagi yuqori darajalariga o'tishini rag'batlantirish usuli sifatida rivojlanish amalga oshirilishi kerak [Sukhoviyyenko, 2004].

2-rasm.



Chet tillarni o'qitishda pedagogik diagnostika pedagogik faoliyat sifatida [Zaripov, 1990]:

— qonunlarda nazarda tutilgan davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim sifatini muntazam va ishonchli monitoring qilish uchun jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga asos bo'la oladi;

— individual ta'lim jarayonini optimallashtirish, talaba shaxsining o'z-o'zini rivojlanishini ta'minlash, uning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali talabalar bilim olish muvaffaqiyatini ta'minlash.

Pedagogik obyekt o'rganilgandan so'ng, tizimli va faoliyatli yondashuvlar usullari asosida tuziladi va uning tizimli ko'rinishi belgi-ramziy vosita – model darajasida yaratiladi, keyinchalik bu tizimli tasvir (model) tahlil qilish vositasi sifatida ishlatilishi kerak. Biz yaratgan konseptual model chet tilni o'qitishda pedagogik

diagnostikadan foydalanish uchun, hamda ular asosida o'qituvchilarning diagnostika faoliyatini ta'minlash uchun ham mos keladi. Modelga kiritilgan komponentlarning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaymiz: ulardan kamida bittasining yo'qligi chet tillarni o'qitishda pedagogik diagnostika tuzilmasini to'liq ishlashiga va vazifalarini bajarishda xatolik sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Chet tilni o'qitishda pedagogik diagnostikaning tavsiflangan modeli konsepsiyaning ajralmas qismi bo'lib, ta'lim sifati diagnostikasini yaratish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [Sukhoviyenko, 2005].

Yuqorida ta'kidlanganidek, pedagogik diagnostikani amalga oshirish jarayonida o'qituvchining o'z rini juda muhim. O'qituvchining diagnostik faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- talabalarga bilim, ko'nikma, malakalarni (BKM) rivojlantirishga yordam beradi;

- turli xil yo'nalishdagi strategiyalarni qanday qo'llash kerakligi bo'yicha maslahat beradi;

- faol qayta aloqani ta'minlaydi;

- noan'anaviy usullar bilan talabalarining harakatlarini qo'llaydi va mustahkamlaydi;

- o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;

- o'quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

- talabalarining o'quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi [Fadeyeva, 2004].

Uning kasbiy faoliyatni diagnostika qilishi quyidagi bosqichlarda o'z ifodasini topadi:

- o'z-o'zini tahlil qilish va zarur ma'lumotlarni anglash;

- o'zini rivojlantirishni rejalashtirish, maqsad va vazifa belgilash;

- o'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish [Xalimova, 1999].

Uning diagnostik faoliyatida quyidagi maxsus kompetensiyalar muhim o'rin egallaydi:

- faniga doir maxsus metodlarni bilish;

- ta'limni tabaqalashtirish;

- talabalar ehtiyojini bilish;

- turli yosh xususiyatlarini bilish;


Shundan kelib chiqqan holda ularga qo'yiladigan talablarni quyidagi submodel orqali ifodalashimiz mumkin (3-rasmga qarang). Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muassasalarida bu ish muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Shu asosda yutuqlar mustahkamlanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida bosh strategik yo'nalishlar belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qo'lga kiritilmoqda. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. Pedagogik diagnostika ta'limni boshqarishda muhim ahamiyatga ega [Abdullayeva, 2016]. U o'quv tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tahlil etadi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf

etishga yo‘l ochadi, pirovard natijada ta’limning takomillashib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta’lim obyekti, ta’limiy tushunchalar qay darajada o‘zlashtirilganligi tahlil etiladi, o‘quv kursi va o‘quv dasturlarining o‘zlashtirish darajasi baholanadi [Xalimova, 1999]. Istalgan kasbiy faoliyat sohasida diagnostika uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mahsulot sifatini belgilab beradi. Bu holatdan o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati, umumiy o‘rta ta’limning pedagogik faoliyati ham istisno emas. Har bir o‘qituvchi o‘zining o‘qitish va tarbiyalash jarayonining natijalarini o‘rganib, tekshirib boradi, ularning bo‘sh o‘zlashtirish sabablarini tahlil etib boradi. Ammo bu hali diagnostika bilan bog‘langani yo‘q [Yuzlikayeva, 2012].

Ta’limda pedagogik diagnostika ta’lim-tarbiya faoliyatida uning sifat va samaradorligini aniqlab beruvchi amaliyot bo‘lib, unda erishilgan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni ko‘rsatib beradi va uning takomillashtirish imkoniyatini ochib beradi [Melnikova, 2001]. U dars jarayonida, ta’lim subyektlari faoliyatida, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Bunda diagnostika ta’lim maqsadi va mazmuni, metod va vositalar, motivlar va qobiliyatlar asosida natijani ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiyani demokratizatsiya va modernizatsiya qilishda, ta’limni differensiyalashda aniq tahliliy axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi [Gilakjani, 2011]. Oliy ta’limdagi kamchilik, bo‘sh tomonlar va kuchli tomonlarni aniqlash asosida uni takomillashtirib borish imkonini beradi. Ta’lim muassasasi uchun qayta aloqani yo‘lga qo‘yish, ahvolga aniq baho berish va boshqaruv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish vazifalari diagnostikaning asosi hisoblanadi [Tsarkov, 1999]. Pedagogik diagnostikaning bosh vazifasi ta’lim-tarbiya jarayonida qayta aloqa vazifasidir [To‘xtaxo‘jayeva, 1996]. Ta’lim-tarbiyaning ma’lum bosqichlarida tarbiyalanganlik va bilimdonlik haqida olingan axborotlarni tahlil etish, kelgusida ta’lim-tarbiya jarayonini konstruksiyalashga, avvalgiga nisbatan o‘zgarishlarni solishtirish imkoniyatini beradi. Olingan axborotlarning to‘liqligi va obyektivligi diagnostikaning boshlang‘ich bosqichida ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda maksimal darajada real talablarga yaqinlashtiradi, uni optimal rivojlantirishga olib keladi. Ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda real olingan axborot talabalarida ularning to‘liq ichki imkoniyatlarini ishga solish orqali DTSlari talablarini to‘liq o‘zlashtirishga olib keladi [Begimkulov, 2007]. Agar ta’lim-tarbiya natijasi bo‘yicha zaruriy xabarlardan o‘z vaqtida aniq va to‘la holda har bir talaba, o‘qituvchi xabardor etib borilsa, o‘z vaqtida korrektirovkalar kiritib borilsagina, kutilgan pedagogik maqsadlarga erishishimiz mumkin.


Pedagogik diagnostikaning boshqaruv vazifasi talabalar jamoasi va ular shaxsining rivojlanishini hamda tarbiya topganligini boshqarishdir. Bunday boshqaruv uch bosqichda olib boriladi: boshlang‘ich, korrektsiyalovchi (joriy), umumlashtirilgan (yakuniy). Boshlang‘ich diagnostika sinf jamoasining ishini rejalashtirish va boshqarishdir. Tarbiyaviy vazifalarni rejalashtirishdan avval hafta, chorak, yarim yillik, butun o‘quv yili davomida o‘qituvchi talabaning bilim darajasini o‘rganib boradi. Talabalaridagi ijobiy, salbiy holatlarning o‘zgarish dinamikasini kundalik kuzatuv asosida qayd etib boradi.

3-rasm.



Shu o'zgarishlarga asosan o'zining rejalarini korrekcirovka etib boradi. Olingan axborotlar asosida tezda, o'z vaqtida ish uslubiga tuzatishlar kiritadi. Ular asosida talabalarning intizomi, o'quv jarayoniga mas'uliyati, faolligi, mustaqil fikrlashi, mustaqilligi va sinf faoliyatiga ijodiy yondashishini nazorat eta oladi (4-rasmga qarang).

4-rasm.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik diagnostikadan foydalanib chet tilida ta'lim jarayonini takomillashtirishning o'ziga xos talablari mavjud. Jumladan, o'qituvchilarga qo'yiladigan, talabalarga qo'yilgan, dars jarayoniga qo'yilgan talablar. Mana shu zanjirli munosabatlardan kelib chiqqan holda diagnostika tizimining ishlashi ta'limda samaradorlikka erishishda ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishga yordam beradi. OTMlari talabalariga chet tillarini o'qitishda pedagogik diagnostika asosida tayyorlash jarayonining nazariy asoslari va metodik ta'minotini takomillashtirish maqsad qilib qo'yilgan. Biroq qo'yilgan vazifalarga samarali erishishni ta'minlaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish diagnostika metodlari yetishmasligi sababli biroz ortda qolmoqda. Shu tariqa ta'lim faoliyatining nafaqat erishilgan, balki kutilayotgan, rejalashtirilgan natijalarini baholashni obyektivlashtirish bilan bog'liq g'oyalar amalda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Tadqiqot davomida SamDChTI, O'zDJTU, NavDPI, JizDPU, NamDU OTMlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish nizomiga muvofiq to'rt (diagnostika va nazorat, tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi) bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqichning jarayoni aniqlandi va tashkillashtirildi. Yuqoridagi model va submodellar vositasida tajriba-sinov mashg'ulotlari tashkil etilganida quyidagicha natijalarga erishildi (3-4-5-jadvallarga qarang):

3-jadval.

Talabalar tinglab tushunish ko'nikmasining rivojlanganlik darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy nazorat natijalari

№	Mezonlar	Guruh	Soni	Rivojlanganlik darajasi			
				A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
1.	Asosiy mazmunni tushunish	Tajriba	250	39%	49%	10%	2%
		Nazorat	250	22%	42%	30%	6%
2.	Umumiy mazmunni tushunish	Tajriba	250	38%	50%	9%	3%
		Nazorat	250	21%	41%	30%	8%
3.	Xabarning ayrim jihatlarini tushunish	Tajriba	250	36%	55%	7%	2%
		Nazorat	250	18%	41%	31%	10%
4.	Qo‘shimcha tafsilotlarni aniqlab olish	Tajriba	250	34%	53%	10%	2%
		Nazorat	250	19%	39%	32%	10%
O‘rtacha ko‘rsatkich		Tajriba	250	37%	52%	9%	2%
		Nazorat	250	20%	41%	31%	8%

4-jadval.

OTMlaridagi tajriba guruhlarining gapirish ko'nikmalaridan umumiy test natijalari

OTM nomi	Dastlabki test natijalari				Yakuniy test natijalari			
	O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan		O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan	
	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi
SamDChTI	21	42 %	29	58 %	27	54 %	23	46 %
O'zDJTU	24	48 %	26	52 %	31	62 %	19	38 %
NamDU	18	36 %	32	64 %	25	50 %	25	50 %

NavDPI	15	30 %	35	70 %	23	46 %	27	54 %
JizDPU	13	26 %	37	74 %	21	42 %	29	58 %

5-jadval.

OTMlari tajriba guruhlarining tinglab tushunish ko'nikmalaridan umumiy test natijalari

OTM nomi	Dastlabki test natijalari				Yakuniy test natijalari			
	O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan		O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan	
	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi
SamDChTI	29	58 %	21	42 %	38	76 %	12	24 %
O'zDJTU	31	62 %	19	28 %	41	82 %	9	18 %
NamDU	27	54 %	23	46 %	35	70 %	15	30 %
NavDPI	29	58 %	21	42 %	37	74 %	13	26 %
JizDPU	28	56 %	22	44 %	34	68 %	16	32 %

Tajriba guruhidagi talabalar tajriba boshidagi tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalari bo'yicha dastlabki test natijalarida ko'rsatgan past natijalarga nomutanosib tarzda yakuniy testda ijobiy natijalarni qayd etishdi (6-7-8-jadvallarga qarang):

6-jadval.

OTMlari talabalarining o'qish ko'nikmasidan dastlabki test natijalari

OTM nomi	Tajriba guruhlari				Nazorat guruhlari			
	O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan		O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan	
	A'lo	Yaxshi	Qon-li	Qon-siz	A'lo	Yaxshi	Qon-li	Qon-siz
SamDChTI	5	15	10	20	6	12	13	19
O'zDJTU	6	13	11	20	7	15	10	17
NamDU	3	11	9	27	14	14	11	11
NavDPI	4	12	10	24	13	13	10	14
JizDPU	5	10	9	26	6	11	12	21
Jami:	23	61	49	117	46	65	56	82
TG – 200								
NG – 200	9%	24%	20%	47%	16%	23%	20%	41%

7-jadval.

OTMlari tajriba guruhi talabalarining o'qish ko'nikmasidan yakuniy test natijalari

OTM nomi	Tajriba guruhlari				Nazorat guruhlari			
	O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan		O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan	
	A'lo	Yaxshi	Qon-li	Qon-siz	A'lo	Yaxshi	Qon-li	Qon-siz
SamDChTI	8	23	7	12	6	12	10	22
O'zDJTU	10	21	16	3	7	13	10	20
NamDU	7	18	14	11	5	11	12	22
NavDPI	9	19	13	9	7	10	10	23
JizDPU	6	15	15	14	6	13	14	17
Jami:	40	96	49	59	31	59	56	104
TG – 200								
NG – 200	17%	39%	21%	23%	12%	24%	22%	42%

8-jadval.

OTMlari tajriba guruhlarining o'qish ko'nikmasidan umumiy test natijalari

OTM nomi	Dastlabki test natijalari				Yakuniy test natijalari			
	O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan		O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan	
	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi
SamDChTI	30	60 %	20	40 %	38	76 %	12	24 %
O'zDJTU	30	60 %	20	40 %	47	94 %	3	6 %
NamDU	23	54 %	27	46 %	41	82 %	9	18 %
NavDPI	26	52 %	24	48 %	41	82 %	9	18 %
JizDPU	24	48 %	26	52 %	36	72 %	14	28 %


Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish jarayonida, pedagogik maydonlar tanlab olindi va mas'ullar aniqlandi va tasdiqlandi. Baholash me'zoni, mashqlar turlari ishlab chiqildi. Tajriba-sinov davomida qo'llaniladigan metodlar va ularning samaradorligi bashorat qilindi.


Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda bo'lajak o'qituvchi-talabalarning tajribadan oldingi bilimlarini tekshirish maqsadida chet tili tinglab tushunish mashqlaridan o'nta turi ajratib olindi va ular asosida tajribadan oldingi testlar olindi. Talabalardan tinglab tushunish ko'nikmalarini aniqlash maqsadida tajriba oldi testlari o'tkazildi. Bizga ma'lumki, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asosiy 10 ta mashq turi mavjud [Field, 2008]. Biz tajriba-sinov oldi testlari uchun mana shu 10 xil mashqlarni test sifatida tuzib chiqdik va talabalarga taqdim qildik. Talabalarning natijalari har bir mashq turi bo'yicha quyidagicha natijalarni aks ettirdi (5-6-7-rasmlarga qarang).

Xuddi shu tarzda og'zaki nutq ko'nikmalari bo'yicha test sinovlari olindi va uchala til ko'nikmalaridan olingan o'rtacha ballarni quyidagicha matematik-statistik tahlil qilib, tajriba-sinov jarayonidagi olib borilgan ishlar natijasida jami umumiy ko'rsatkichni aniqladik. Matematik-statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan m_i va m_j va takroriyliklarni (chastota) mos matematik-statistik ehtimollik formulalari asosida hisoblaymiz:

5-rasm.



"Multiple choice" mashq turi bo'yicha dastlabki test natijalari







6-rasm.

“Matching” mashq turi bo'yicha dastlabki test natijalari



7-rasm.

“Note completion” mashq turi bo'yicha dastlabki test natijalari



$$P_i = \frac{n_i}{n} \quad \text{va} \quad Q_j = \frac{m_j}{m}$$

$$\begin{cases} X_i & 3; \quad 2; \quad 1; \\ P_i & \frac{72}{250}; \quad \frac{108}{250}; \quad \frac{70}{250}; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 P_i = 1$$

$$\begin{cases} Y_j & 3; \quad 2; \quad 1; \\ Q_j & \frac{51}{250}; \quad \frac{71}{250}; \quad \frac{128}{250}; \end{cases} \quad \sum_{j=1}^3 Q_j = 1$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab,

qiyoslashdan boshlaymiz. Oʻrtacha oʻzlashtirish koʻrsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i = \frac{72}{250} \cdot 3 + \frac{108}{250} \cdot 2 + \frac{70}{250} \cdot 1 = \frac{216}{250} + \frac{216}{250} + \frac{70}{250} = \frac{502}{250} = 2,008$$

$$\text{foizda } \bar{X}\% = \frac{2,008}{3} \cdot 100\% = 66,9\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^{m=3} Q_j Y_j = \frac{51}{250} \cdot 3 + \frac{71}{250} \cdot 2 + \frac{128}{250} \cdot 1 = \frac{153}{250} + \frac{142}{250} + \frac{128}{250} = \frac{423}{250} = 1,692$$

$$\text{foizda } \bar{Y}\% = \frac{1,692}{3} \cdot 100\% = 56,4\%$$

Demak, tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarda ga yuqori ekan. Bu esa, oʻz navbatida, $\frac{66,9\%}{56,4\%} = 1,18$ barobar ortiqqligini anglatadi. Sotib olishni aniqlash jarayonida qabul qilinadigan xatolarni aniqlash uchun avval oʻrtacha ikkilamchi xato va standart xatoni aniqlaymiz. Xususan, oʻrtacha kvadratik xato:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i^2 - (\bar{X})^2 = \frac{72}{250} \cdot 3^2 + \frac{108}{250} \cdot 2^2 + \frac{70}{250} \cdot 1^2 - \left(\frac{502}{250}\right)^2 = \frac{72}{250} \cdot 9 + \frac{108}{250} \cdot 4 + \frac{70}{250} \cdot 1 - \left(\frac{502}{250}\right)^2 = \frac{648}{250} + \frac{432}{250} + \frac{70}{250} - \left(\frac{502}{250}\right)^2 = \frac{1150}{250} - \left(\frac{502}{250}\right)^2 = \frac{287500 - 252004}{250 \cdot 250} = \frac{35496}{62500} = 0,5679$$

$$S_y^2 = \sum_{j=1}^{n=3} Q_j Y_j^2 - (\bar{Y})^2 = \frac{51}{250} \cdot 3^2 + \frac{71}{250} \cdot 2^2 + \frac{128}{250} \cdot 1^2 - \left(\frac{423}{250}\right)^2 = \frac{51}{250} \cdot 9 + \frac{71}{250} \cdot 4 + \frac{128}{250} \cdot 1 - \left(\frac{423}{250}\right)^2 = \frac{459}{250} + \frac{284}{250} + \frac{128}{250} - \left(\frac{423}{250}\right)^2 = \frac{871}{250} - \left(\frac{423}{250}\right)^2 = \frac{871 \cdot 250 - 423 \cdot 423}{250 \cdot 250} = \frac{38821}{62500} = 0,6211$$

Standart xatoliklar talabalarda:

$$S_x = \sqrt{0,5679} = 0,75; \quad S_y = \sqrt{0,6211} = 0,78$$

Standart xatoliklar talabalarda:

$$S_x = \sqrt{0,5679} = 0,75; \quad S_y = \sqrt{0,6211} = 0,78$$

Bundan tajriba guruhlaridagi standart xatolik nazorat guruhlaridagi koʻrsatkichlarga nisbatan kichik boʻldi, yaʼni $0,75 < 0,78$. Buni yanada aniqroq koʻrsatish maqsadida har ikki statistik tanlanma boʻyicha oʻrta qiymat aniqliklarini biz variatsiya koeffitsiyentlari orqali, yaʼni C_x va C_y formula orqali hisoblaymiz:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n} \cdot \bar{X}} \cdot 100\% = \frac{0,75 \cdot 100\%}{\sqrt{250} \cdot 2,008} = \frac{75\%}{15,8 \cdot 2,008} = \frac{74\%}{31,54} = 2,36\% \approx 2,4\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{m} \cdot \bar{Y}} \cdot 100\% = \frac{0,78 \cdot 100\%}{\sqrt{250} \cdot 1,69} = \frac{78\%}{15,8 \cdot 1,69} = \frac{78\%}{26,7} = 2,92\% \approx 3\%$$

Shuning uchun tajriba guruhlarining oʻrtacha oʻzlashtirish

htirish ko'rsatkichining aniqligi nazorat guruhlariga qaraganda kamroq ekanligi aniqlandi. Keyin ikki bosh to'plamining noma'lum o'rtacha qiymatga o'xshashligini hisobga olgan holda Stilus tanlash mezonlari asosida nol gipotezani tekshiring: $H_0: \mu = \mu_y$. Shunga asosan quyidagi hisoblashni bajaramiz:

$$T_{x,y} = \frac{\bar{X} - \bar{Y}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} = \frac{2,008 - 1,69}{\sqrt{\frac{0,5679}{250} + \frac{0,6211}{250}}} = \frac{0,318}{\sqrt{0,0022 + 0,0024}} = \frac{0,318}{\sqrt{0,0046}} = \frac{0,304}{0,067} = 4,74$$

Styudent mezonni asosida erkinlik darajasini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$k = \frac{\left(\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}\right)^2}{\left(\frac{S_x^2}{n}\right)^2 + \left(\frac{S_y^2}{m}\right)^2} = \frac{\left(\frac{0,5679}{250} + \frac{0,6211}{250}\right)^2}{\left(\frac{0,5679}{250}\right)^2 + \left(\frac{0,6211}{250}\right)^2} = \frac{(0,0022 + 0,0024)^2}{\frac{(0,0022)^2}{249} + \frac{(0,0024)^2}{249}} = \frac{(0,0046)^2}{\frac{0,0000048}{249} + \frac{0,0000057}{249}} = \frac{0,000021}{0,000000019 + 0,000000023} = \frac{0,000021}{0,000000042} = 50$$

ushbu ehtimollik uchun statistik alomatning qiymatdorlik darajasini $\alpha=0,05$ deb olsak, u holda $\rho=1 - \alpha=0,95$ ga hamda erkinlik darajasi $k=50$ ga teng. Styudent funksiyasi taqsimot jadvalidan ikki tomonlama mezonning kritik nuqtasi:

$$t_{1-\frac{(1-\rho)}{2}}(k) = t_{1-\frac{(1-0,95)}{2}}(50) = t_{0,975}(50) = 2,009$$

Bundan ko'rinib turibdiki, matematik-statistikaning tanlanma qiymati kritik nuqtadan katta ekan. Bundan Styudentning tanlanma mezonni:

$$T_{x,y} = 4,74 > 2,009 \text{ ga teng.}$$

Demak, bosh o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi nolinni gipoteza rad etiladi. Buni 95% ishonchlilik bilan aytishimiz mumkinki, tajriba-sinov guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari har doim nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'ldi. Endi baholashning samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash uchun ishonchli intervalni topamiz:

$$\Delta_x = t_\gamma \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} = 2,009 \cdot \frac{0,75}{\sqrt{250}} = 2,009 \cdot \frac{0,75}{15,8} = \frac{1,506}{15,8} \approx 0,095$$

$$\Delta_y = t_\gamma \cdot \frac{S_y}{\sqrt{m}} = 2,009 \cdot \frac{0,78}{\sqrt{250}} = 2,009 \cdot \frac{0,78}{15,8} \approx 0,09 \text{ ga teng.}$$


Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$X - \Delta_x \leq \alpha_x \leq X + \Delta_x$$

$$2,008 - 0,095 \leq \alpha_x \leq 2,008 + 0,095; \quad 1,93 \leq \alpha_x \leq 2,1$$

Nazorat guruhi uchun ishonchli interval: $\bar{Y} - \Delta_y \leq \alpha_y \leq \bar{Y} + \Delta_y$

$$1,69 - 0,095 \leq \alpha_y \leq 1,69 + 0,095; \quad 1,595 \leq \alpha_y \leq 1,785$$



Bizga ma'lum – qiymatdorlik darajasi bilan aytishimiz mumkinki, chet tili ko'nikmalari bo'yicha o'qituvchilarda tajriba yakunidagi o'rtacha baho tajriba boshidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Talabalarda ham xuddi shunday tajriba guruhlaridagi o'rtacha baho nazorat guruhlaridagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlilga asosan, yaxshi natijaga erishganligimiz ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi natijalarga asosanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz. Jumladan, bizga ma'lum: $\bar{X} = 2,008$; $\bar{Y} = 1,69$; $\Delta_x = 0,095$; $\Delta_y = 0,09$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{usb} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,008 - 0,095}{1,69 + 0,09} = \frac{1,913}{1,78} = 1,07 > 1$$

$$K_{bdb} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,008 - 0,095) - (1,69 + 0,09) = 1,913 - 1,78 = 0,133 > 0$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, tajriba guruhidagi tajriba oldi va yakunidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi tajriba oldi va yakunidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan yuqori, ya'ni 10,5 % bo'ldi.

XULOSA

Tadqiqotning nazariy (asosiy) va empirik (yordamchi) metodlarining qo'llanilishi tajriba-sinov ishining samarali bo'lishini ta'minladi. Tavsiya qilingan didaktik materiallar, mashqlar va topshiriqlardan foydalanib, dars mashg'ulotlari o'tkazildi. Ingliz tilida bilim, ko'nikma va malakalarining o'zlashtirilish darajasini aniqlash uchun baholash mezonlari ishlab chiqildi. Ilmiy kuzatish metodi yordamida tabiiy sharoitda – dars mashg'ulotlari davomida nutq qobiliyatlarining darajasi, talabalarining ingliz tilini o'rganishdagi bilimlari, harakatlari, qobiliyatlari hamda psixologik jarayonlari kuzatildi. Shu bilan birga, nazorat davomida talabalar chet tillarini o'qitishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklaridan xabardor bo'lishdi. Nazariy metodlar – xorijiy va Respublika miqyosida tashkil etilgan konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarda ilmiy maqolalarga ega bo'lish, ijobiy tajribalarni o'rganishdan tashkil topdi. Tadqiqotning asosiy metodi sifatida analitik va nazariy metodlar qo'llanilib, ular ishning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini o'rganishda asosiy vosita bo'ldi. OTMlari talabalarining dastlabki tekshiruv nazoratida aniqlangan

kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida tajriba guruhlarida talabalar uchun dasturda belgilangan o'qish, tinglab tushunish ko'nikmalari va leksik minimumi ustida alohida chora-tadbirlar olib borildi. Tajriba-sinov maydonidagi ishtirokchi talabalarning o'qish va og'zaki nutq ko'nikmalaridagi ijobiy o'sish ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ulardan dastlabki va yakuniy nazorat testlari olindi. Mtematik-statistik tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, o'tkazilgan tajriba-sinov ishining natijalaridan kuzatilgan o'rtacha – 10,5 % o'sish ko'rsatkichi oliy ta'limda pedagogik diagnostika orqali chet tillarini o'qitishda uning natijadorligini tasdiqladi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlangan muammolar va taqdim etilgan metodikaning samarasini inobatga olgan holda, OTMlarida bugungi kunda o'qish va og'zaki nutq ko'nikmalari fanlari dasturlarining pedagogik diagnostika asosida qaytadan tuzilishi va dars jarayonlarining unga ko'ra tizimli tashkil etilishini tadqiqot natijalari ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2022-yil 21-dekabr). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. *“Yangi O'zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazetasi*, 259(781), 1–3.
2. Abdullayeva, Sh.A. (2010). *Pedagogik diagnostika*. Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti.
3. Abdullayeva, Sh.A. (2016). O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar. *Xalq ta'limi*, 3, 40–45.
4. Abdullayeva, Sh.A., & Ro'ziyeva, R.A. (2018). *Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya*. Toshkent: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti.
5. Begimkulov, U.Sh. (2007). Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. *Ped. fan. dok. diss.* Toshkent.
6. Fadeyeva, O.A. (2004). *Pedagogicheskaya diagnostika professional'nogo stanovleniya budushchego uchitelya v vuze. Diss. kand. ped. nauk.* Omsk.
7. Field, J. (2008). *Listening in the language classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Gilakjani, A.P. (2011). Visual, auditory, kinaesthetic learning styles and their impacts on English language teaching. *Journal of Studies in Education*, 2(1), 104–113.
9. Jalolov, J.J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti.
10. Melnikova, M.B. (2001). Teoretiko-metodologicheskoye i tekhnologicheskoye osnovy adaptivnogo testirovaniya v obrazovanii. *Diss. dok. ped. nauk.* Moskva.
11. Sukhoviyyenko, Ye.A. (2005). Kontseptualnyye osnovy informatsionnykh tekhnologiy pedagogicheskoy diagnostiki. *Diss. dok. ped. nauk.* Chelyabinsk.
12. Sukhoviyyenko, Ye.A. (2004). Model diagnosticheskoy deyatel'nosti pedagoga kak osnova kursa “Informatsionnyye tekhnologii pedagogicheskoy diagnostiki”. *“Nauchnoye obespecheniye sistemy povysheniya kvalifikatsii kadrov” mezhvuzovskiy sbornik nauchnykh trudov*. Chelyabinsk: Obrazovaniye.
13. Tsarkov, V.N. (1999). *Pedagogicheskaya diagnostika kak sredstvo sversheniya obrazovatel'nogo protsessa. Diss. kand. ped. nauk.* Moskva.
14. To'xtaxo'jayeva, M.X. (1996). *Pedagogika nazariyasi va tarixi: Pedagogika nazariyasi*. Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti.
15. Xalimova, N.M. (1999). Pedagogicheskoye obucheniye kak faktor uspehnosti obucheniya studentov. *Diss. kand. ped. nauk.* Krasnoyarsk.
16. Yuzlikayeva, E.R. (2012). Teoriya i praktika podgotovki uchitelya k diagnosticheskoy deyatel'nosti. *Diss. dok. ped. nauk.* Tashkent.
17. Yo'ldoshev, J. (2000). *Ta'lim yangilanish yo'lida*. Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti.

18. Zaripov, K. (1990). *Pedagogicheskaya diagnostika v sisteme nepreryvnogo povysheniya kvalifikatsii uchiteley. Avtoref. diss. dok. ped. nauk.* Tashkent.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2022, December 21). Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan. *New Uzbekistan*, 259(781), 1–3.
2. Abdullayeva, Sh.A. (2010). *Pedagogical diagnosis*. Tashkent: Publishing House of ‘Science and Technology’.
3. Abdullayeva, Sh.A. (2016). Methods used in the pedagogical diagnosis of students. *Public Education*, 3, 40–45.
4. Abdullayeva, Sh.A., & Roziyeva, R.A. (2018). *Pedagogical diagnosis and pedagogical correction*. Tashkent: Publishing House of ‘Economy-Finance’.
5. Begimkulov, U.Sh. (2007). Scientific-pedagogical foundations of introducing modern information and communication technologies into the system of higher pedagogical education. *DSc thes. ped. scien.* Tashkent.
6. Fadeeva, O.A. (2004). Pedagogical diagnostics of the professional development of a future teacher at a university. *Diss. cand. ped. scien.* Omsk.
7. Field, J. (2008). *Listening in the language classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Gilakjani, A.P. (2011). Visual, auditory, kinaesthetic learning styles and their impacts on English language teaching. *Journal of Studies in Education*, 2(1), 104–113.
9. Jalolov, J.J. (2012). *Methodology of foreign language teaching*. Tashkent: Publishing House of ‘Teacher’.
10. Khalimova, N.M. (1999). Teacher training as a factor in student learning success. *Diss. cand. ped. scien.* Krasnoyarsk.
11. Melnikova, M.B. (2001). Theoretical, methodological and technological foundations of adaptive testing in education. *DSc thes. ped. scien.* Moscow.
12. Sukhovienko, E.A. (2004). Model of diagnostic activity of a teacher as the basis of the course “Information technologies of pedagogical diagnostics.” Interuniversity collection of scientific works on the topic *Scientific Support for the System of Advanced Training of Personnel*. Chelyabinsk: Education.
13. Sukhovienko, Y.A. (2005). Conceptual foundations of information technologies for pedagogical diagnostics. *DSc thes. ped. scien.* Chelyabinsk.
14. Tokhtakhodjayeva, M.Kh. (1996). *Pedagogical theory and history: Pedagogical theory*. Tashkent: Publishing House of ‘Economy-Finance’.
15. Tsarkov, V.N. (1999). Pedagogical diagnostics as a means of completing the educational process. *Diss. cand. ped. scien.* Moscow.
16. Yoldoshev, J. (2000). *Education is on the way to renewal*. Tashkent: Publishing House of ‘Teacher’.
17. Yuzlikaeva, E.R. (2012). Theory and practice of teacher preparation for diagnostic activities. *DSc thes. ped. scien.* Tashkent.
18. Zaripov, K. (1990). Pedagogical diagnostics in the system of continuous professional development of teachers. *Abs. DSc thes. ped. scien.* Tashkent.